

Бухоро давлат университети магистрантларнинг илмий мақолапар тўплами



20

ТАФАККУР ВА ТАЛҚИН

СБОРНИК НАУЧНЫХ ТРУДОВ МАГИСТРАНТОВ * COLLECTION OF SCIENTIFIC ARTICLES OF BUKHARA STATE UNIVERSITY POST-GRADUATE STUDENTS



2. Aminov.N. Qahqaha. – T.: G'.G'ulom,1987. -351b.
3. Qodiriy.A. O'tkan kunlar. Www.ziyo.uzcom kutubxonasi.
4. Oybek. Navoiy. Www.ziyo.uzcom kutubxonasi.
5. Cho'lpon. Kecha va kunduz. Www.ziyo.uzcom kutubxonasi.
6. O'.Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – T.: Sharq,2013. -334b.

MATNING LINGVISTIK TAHLILI

HAMROYEVA MAFTUNA (BuxDU magistr talabasi)

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi biz uchun tilimizning ichki va tashqi imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanish imkoniyatini yaratdi. Tilimiz asrlar davomida necha minglab turkiy ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bo'lib, o'zbek xalqi orasida aloqa vositasi, shuningdek matbuot va badiiy adabiyot tili bo'lib xizmat qilmoqda. Bu tilda Mahmud Koshg'ariy, Nosuriddin Rabg'uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Muqimiy, Cho'lpon, Fitrat va boshqa qator adiblarimiz o'zlarining tarixiy badiiy asarlarini yaratib, uning qudratini namoyish qilganlar. O'zbek tilining o'ziga xos jilosi, uning serqirraligini to'laroq anglash uchun adiblarimizning badiiy asarlari tilini o'rganish zamon talabidir.

Ma'lum bir asarning g'oyaviy mazmunini, badiiy-estetik qimmatini to'la anglamoq uchun matndagi har bir til elementini chuqur his qilib, tahlil qilish lozim. Bu esa bo'lajak mutaxassisdan chuqur bilim va malakani talab etadi.

Matnning lingvistik tahlil usullari bir qancha bo'lib, bu tahlilning maqsadi, yo'nalishi va qamrovini asar hajmi jihatini hisobga olib ikkiga ajratish mumkin: tematik va kompleks tahlil.

1. Tematik tahlil deganda, biror bir badiiy asarni tilning bir jihati bo'yicha va ma'lum tamoyil, usullar bo'yicha tahlil qilish nazarda tutiladi. Tematik tahlil asosan, til sathlaridan biri bo'yicha amalga oshiriladi. Masalan, Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanini leksik-semantik jihatdan tahlil qilamiz, deylik. Asardagi lug'aviy birliklar (ayrim so'zlar, iboralar, maqollar, matallar, aforizmlar) ajratib olinadi. Lug'aviy birliklar asar badiiyatiga qay darajada xizmat qilishi, an'anaviy yoki individual ekanligi aniqlanadi. Matn komponentlarining birikish usullari alohida o'rganiladi. Matn tiplari va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

2. Kompleks tahlil. Tilning barcha sohalarga xos birliklar va ularning muayyan bir asarda qo'llanishini matnning umumiy mazmuni, janri, tarkibiy tuzilishi bilan o'zaro bog'liklikda olib o'rganish kompleks tahlilning asosini tashkil etadi. Bu xildagi tahlil umumfilologik yo'nalish, mazmun va xarakter kasb etadi. Shuning uchun matnni tahlil qilishdan avval adabiyotshunoslik va tilshunoslik bilan aloqador sohalarning tamal qonuniyatlaridan, albatta, xabardor bo'lishimiz kerak. Kompleks tahlil biror bir ijodkorga bag'ishlangan bo'ladi. Bunday tahlilni bir asarni turli sathlar bo'yicha yoki bir necha asarni bir sath bo'yicha o'tkazish mumkin. Masalan, Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romani lingvopoetikasi (til sathlari bo'yicha). Yoki Abdulla Qodiriy asarlari lingvopoetikasi. Bunda adib qalamiga mansub barcha asarlarning lisoniy xususiyatlari tekshiriladi va natijalar umimlashtirib tahlilga tortiladi. Bu oson ish emas. Shuningdek, bir yoki ikki kishining ishi ham emas. Adib asarlarini har taraflama tekshirish, tahlil qilish, shu kungacha qilingan barcha ishlarni bir joyga to'plash, tasniflash indeksli ma'lumotlar bazasini yaratish, zaruriy lug'atlarni tayyorlash va boshqa ishlarni amalga oshirish jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan lingvopoetikaning faoliyat doirasiga kiradi.

Bulardan tashqari matnni "lingvistik mikroskop" ostida ham tahlil qilish usuli ham mavjud. Bu usul ancha murakkab va serqirra bo'lib, tadqiqotchidan yuksak filologik bilimni talab qiladi. Shuningdek, talabalar bilimni jamlash, takrorlash va mustahkamlash uchun katta ahamiyatga ega.

Quyida Xayriddin Sultonning "Saodat sohili" qissasidagi bir matnning "lingvistik mikroskop" ostidagi fonetik va leksik tahlilini ko'rib o'tamiz.

– Eh-h, taqsir... matni fonetik tahlili:

Xususiyatlari	Tovush E,e
Fiziologik	Old qator, o'rta keng, lablanmagan, unli tovush.
Akustik	Cho'ziq, muzikal ovozdor.
Orfoepik	Hech qanday to'siqqa uchramay hosil bo'ladi va kengroq talaffuz qilinadi, biroq ruscha leksik o'zlashmaning urg'usiz bo'g'inida tor (Iga yaqin) aytiladi: adres – adris. Ea, oe unilari yonma-yon kelganda bitta y ortiriladi: teatr – teyatr, poema – poyema, ae yonma-yon kelganda e tovushining o'rniga y talaffuz qilinadi: aeroport – ayroport. Men – man, sen – san.
Orfografik	Yuklama bo'lsa chiziqcha bilan yoziladi.
Fonologik	Ma'no farqlaydi, urg'u oladi va bo'g'in hosil qiladi: tez – tuz – toz – tiz.
Leksik	Sinonim yo'q so'zi bilan, antonim xo'p so'zi bilan, omonim taajjub yuklamasi va undov so'zi bilan.
Boshqa fanlar bilan aloqasi	kimyoda va fizikada E – energiya,
Morfemik	So'z ham shakl ham yasamaydi.
Morfonologik	O'zgarmas.
Morfologik	Yuklama, undov
Punktuatsion	Tinish belgilarni qabul qila oladi: Kel-e!!! sen-e??? E? Eee!!!
Uslubiy	Nutq uslublarida ekspressivlik, ta'sirchanlik, taajjub va so'roq ma'nolarini hosil qiladi
Alfavitdagi o'rni	4

Xususiyatlari	Tovush H,h
Fiziologik	Bo'g'izda sirg'alish natijasida hosil bo'luvchi undosh tovush.
Akustik	Faqat shovqindan iborat jarangsiz.
Orfoepik	Jonli nutqda ba'zan o'zidan keying undosh kabi aytiladi yoki butunlay talaffuz etilmaydi: mahsi – massi, dahliz – daliz.
Orfografik	Undov so'z tarkibi bo'lganda chiziqcha bilan yoziladi: oh-h, uh-h, eh-h.
Fonologik	Ma'no farqlaydi: hiyla – xiyla, muhim – muqim.
Leksik	Yo'q, ha so'zi bilan sinonim: – uyga bor, – He(yo'q). – uyga borasanmi? – H...(Ha)
Morfemik	So'z ham shakl ham yasamaydi
Morfonologik	O'zgarmas
Morfologik	H(e) tasdiq va inkor so'zlar
Punktuatsion	Tinish belgilar bilan qo'llanishi: He. H...
Uslubiy	Nutq jarayonida ekspressivlik ma'nosini hosil qiladi
Alfavitdagi o'rni	7

Boshqa fanlar bilan aloqasi	Kimyoda h – plank doimiysi, H ₂ – vodorod, matematikada h – balandlik,
Xususiyatlari	Tovush T, t
Fiziologik	Til oldi, portlovchi undosh tovush.
Akustik	Faqat shovqindan iborat jarangsiz.
Orfoepik	Soʻz oxiri va oʻrtasida tushib qoladi: doʻst – doʻs, dastroʻmol – dasroʻmol, t bilan tugagan soʻzga ch undoshi bilan boshlanadigan qoʻshimcha qoʻshilsa t ning ch ga aylanishi: yigitcha – yigichcha.
Orfografik	Bir soʻziga –ta qoʻshilsa r t ga oʻzgaradi va shunday yoziladi: bir+ta=bitta.
Fonologik	Maʼno farqlaydi: tama – shama – lama.
Leksik	Yoʻq.
Morfemik	Lugʻaviy shakl yasovchi isi – isit, soʻz yasovchi toʻla+t=toʻlat.
Morfonologik	Oʻzgaruvchan: bir+ta=bitta, shart+a=shartta, qati+q=qattiq, yetti+mish=yetmish, sust+ay=susay, -tir(-dir).
Morfologik	Orttirma nisbat shakli: qara – qarat.
Punktuation	T...
Uslubiy	Nutq jarayonida ekspressivlik, nopisandlik maʼnolari bor.
Alfavitdagi oʻrni	19
Boshqa fanlar bilan aloqasi	Kimyo va fizikada T, t – temperature, t – vaqt,

Xususiyatlari	Tovush A, a
Fiziologik	Old qator, quyi keng, lablanmagan unli tovush.
Akustik	Choʻziq, sof ovozdin iborat.
Orfoepik	Qoʻsh holatda yoki tutq belgidan oldin kelsa choʻzib talffuz etiladi: mutolaa, aʼlo. O ga monand aytiladi: bahor – bohor, navbat – novbat.
Orfografik	Yuklama boʻlganda chiziqcha bilan yoziladi: sen-a?
Fonologik	Maʼno farqlaydi: sana – sina.
Leksik	Eshitmadim, nima soʻzlari bilan sinonim: –Borasanmi? – A?
Morfemik	Soʻz yasovchi son+a=sana, koʻtar+a=koʻtara, shar+a=sharshara. lugʻaviy shakl yasovchi ayt+a=ayta.
Morfonologik	Oʻzgaruvchan: sina+v=sinov, sana+q=sanoq, sayra+qi=sayroqi, ong+la=angla, son+a=sana, qoʻzgʻa+t=qoʻzgʻot, ilgʻa+r=ilgʻor, tala+n=talon,
Morfologik	Joʻnalish kelishigi: boshima, ravishdosh ayta-ayta, yuklama men-a?
Punktuation	A, A? A!
Uslubiy	Nutq uslublarida taʼsirchanlik, hayajon, taajjub, soʻroq maʼnolarini ifodalaydi.
Alfavitdagi oʻrni	1
Boshqa fanlarda	Fizikada A – amper, matematikada A, a – burchak va tomon

Xususiyatlari	Tovush Q, q
Fiziologik	Chuqur til orqa, portlovchi undosh tovush.
Akustik	Faqat shovqindan iborat jarangsiz tovush.

Orfoepik	Dissimlatsiyaga uchraydi: maqtanchoq – maxtanchoq.
Orfografik	q bilan tugan soʻzlarga egalik qoʻshimchalari qoʻshilsa q gʻ ga oʻzgaradi: qishloq – qishlogʻim (istisno haq, ravnaq, huquq, yuq) g bilan boshlanuvchi qoʻshimchalarning q bilan boshlanuvchi variantlari qoʻshiladi: -qa, -qan, -qach...qishloqqa.
Fonologik	Maʼno farqlaydi: qish – tish – nish.
Leksik	Yoʻq.
Morfemik	Soʻz yasovchi soʻra+q=soʻroq, ili+q=iliq.
Morfologik	Oʻzgaruvchan: oʻyinchoq+im=oʻyinchogʻim, chiq+qan=chiqqan, chiqquncha, chiqqach, tuproqqa.
Morfologik	Yoʻq.
Punktuatsion	Yoʻq.
Uslubiy	Yoʻq.
Alfavitdagi oʻrni	16
Boshqa fanlar bilan aloqasi	Kimyoda q – issiqlik

Xususiyatlari	Tovush S, s
Fiziologik	Til oldi sirgʻaluvchi undosh tovush.
Akustik	Faqat shovqindan iborat jaransiz tovush.
Orfoepik	Yuz soʻm yuz soʻm deb talaffuz qilinsa ham yuz soʻm yoziladi.
Orfografik	S bilan tugagan feʼllarga ortirma nisbatning –tir shakli qoʻshiladi.
Fonologik	Maʼno farqlaydi: tus – tuz – tut – tuk.
Leksik	Yoʻq.
Morfemik	Yoʻq.
Morfologik	Oʻzgaruvchan: his+iy=hissiy, -si, -li, -ki, -qi mevali, mevasi, tepki, sayroqi
Morfologik	Yoʻq.
Punktuatsion	Yoʻq.
Uslubiy	Yoʻq.
Alfavitdagi oʻrni	18
Boshqa fanlar bilan aloqasi	Kimyoda S – oltingugurt, fizikada S – yoʻl

Xususiyatlari	Tovush I, i
Fiziologik	Old qator yuqori tor lablanmagan unli tovush.
Akustik	Choʻziq musiqali sof ovozdan iborat.
Orfoepik	Tilak, tish soʻzlarida qisqa, ilmiy, adabiy soʻzlarida choʻziq, qir, gʻilof, xil soʻzlarida qisqa va qattiq talaffuz qilinadi.
Orfografik	I bilan tugagan feʼllarga –v, -q qoʻshimchalari qoʻshilsa, i u ga oʻzgaradi va shunday yoziladi, biroq qavi va ogʻri soʻzlari istisno tarzida qaviq va ogʻriq deb yoziladi.
Fonologik	Maʼno farqlaydi: kir – koʻr – kar.
Leksik	Taajjub maʼnoli leksemalar bilan bitta paradigmada turadi.
Morfemik	Soʻz yasovchi boy+i=boyi, jannat+i=jannati, sintaktik shakl yasovchi kitob+i=kitobi.

Morfonologik	O'zgaruvchan: tani+v=tanuv, yig'i+la=yig'la, o'g'il+im=og'lim, chuchi+k=chuchuk, o'yin+a=o'yna, qayir+il=qayril, ayir+il=ayril, ayir+im=ayrim, og'iz+aki=og'zaki, sariq+ay=sarg'ay, ikki+ov (ala, ovlon)=ikkov. -it, -ot, -at.
Morfologik	Tushum kelishigi: tutmang hargiz nomimi (nomimni).
Punktuatsion	lii?!! Buni qarang.
Uslubiy	So'roq-taajjub, hayratlanish ma'nolarida ishlatiladi.

Xususiyatlari	Tovush R, r
Fiziologik	Til oldi sirg'aluvchi undosh tovush.
Akustik	Ovoz va shovqindan iborat jarangli undosh tovush.
Orfoepik	So'z o'rtasi va oxirida bilinar bilinmas talaffuz qilinadi.
Orfografik	So'zlar tarkibida qo'shib yoziladi.
Fonologik	Ma'no farqlaydi: erkak – eshkak.
Leksik	Yo'q.
Morfemik	Urg'aviy shakl yasovchi jo'na+r=jo'nar.
Morfonologik	O'zgaruvchan: qo'rqr+ma=qo'rqmas. -ra, -sa, -ga.
Morfologik	Yo'q.
Punktuatsion	Yo'q.
Uslubiy	Yo'q.
Alfavitdagi o'rni	17
Boshqa fanlar bilan aloqasi	Kimyoda R – universal gaz doimiysi, matematikada r – radius, musiqada nota re.

– Eh-h, taqsir... matnining leksik tahlili:

Xususiyati	Eh-h	taqsir
Fonetik	1 bo'gin, 3ta harfdan iborat	2 bo'g'in, 6 harfdan iborat
Akustik	Urg'uli.	Urg'uli, oxirgi bo'ginga urg'u tushadi.
Etimologik	Arabcha	Arabcha.
Ma'no strukturas	Undov so'z.	Turdosh shaxs oti.
Ma'no turi	Zorlanish.	Murojaat.
Ma'no miqdori	Polisemantik (afsuslanish).	monosemantik.
Ma'no munosabati	Sinonimi oh-h, voh, uh-h.	Sinonimi bor: hazrat, mavlono, janob.
Shakl munosabati	Omonimi yo'q.	Omonimi yo'q.
Antonim	Antonimi oh!!!	Antonimi yo'q.
Nutqda qo'llanilishi	Faol.	Nofaol.
Yozilish prinsipi	Fonetik.	Tarixiy-an'anaviy.
Yasalishi	Tub.	Tub.
Yozilish qoidasi	Kichik harf bilan yoziladi.	Kichik harf bilan yoziladi.
Nutq uslublarida ishlatilishi	So'zlashuv va badiiy uslubga xos.	Badiiy uslubga xos.

Bundan tashqari matnning tilning morfemika, morfologiya, sintaksis, tinish belgilari, fonografik-uslubiy sathlarida ham "lingvistik mikroskop" ostida tahlil qilishimiz mumkin. Bu orqali biz nafaqat bilimlarimizni sinovdan o'tkazamiz, balki til elementlarining cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini, nutqda til birliklarining nutqiy sharoit talabi bilan bittagina orqasi o'zini namoyon qilishini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Dilichev E. Matnning lingvistik tahlili. –B.:Buxoro universiteti, 2000.

2. O'zbek tilining izohli lug'ati. –M.:1981.

3. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.:2010.

5 A 120102 – LINGVISTIKA (INGLIZ)

SINXRON TARJIMA– TARJIMANING BIR TURI SIFATIDA

ABDULLAYEVA G.G. (BuxDU magistr talabasi)

Bugungi kunda mamlakatimizda xorijiy tillarni o'qitish va o'rganish masalalariga katta ahamiyat berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda PQ 1875 sonli "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida yurtimizda ko'plab samarali ishlar olib borilyapti. Shuningdek, O'zbekistonda dunyoning nufuzli mamlakatlaridan ko'plab olimlar, delegatlar ishtirok etadigan xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar va seminarlar tashkil etilishi bunday anjumanlarda, albatta, chet tillarini puxta o'zlashtirgan, yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan tarjimonlarga ehtiyojni yanada orttiradi.

Shunisi ahamiyatliki, O'zbekistonda sinxron tarjima yo'nalishi ustida ham sezilarli taqqiqotlarni qayd etishimiz mumkin. Jumladan, O. Mo'minov, I.G'afurov, G'. Salomov, N.Qambarov va boshqa olimlarning tarjimashunoslikka doir bir necha o'quv qo'llanmalarida sinxron tarjima, uning xususiyatlari va metodlari, jarayon davomida vujudga keladigan muammo va qiyinchiliklar to'g'risida fikrlar bayon qilingan. Ammo shuni ham ta'kidlash joizki, bugungi kunga qadar ushbu muammolarga konseptual muammo, ya'ni yaxlit bir tizim sifatida qaralmagan. Taniqli olim N.A. Shermuhammedova konseptual muammoga quyidagicha ta'rif beradi: "Konseptual muammolar ilgari olingan ko'p sonli ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lib, ularni tartibga solish va talqin qilish, oqibatlarini keltirib chiqarish va gipotezalarni shakllantirish, mantiqiy izchillik talablariga muvofiq qarama-qarshiliklarni bartaraf etishni nazarda tutadi" [4; 332]. Shunday ekan ushbu muammolarni o'rganishda ilgari olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va mantiqiy ketma-ketlik asosida masalani yoritish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, tarjimani ma'lum turlarga ajratishda bir necha mezonlar mavjud. Taniqli olim Z.G. Proshinaning quyidagi klassifikatsiyasi bir necha kriteriyalarga asoslanib tarjima turlarni tasniflab beradi: [2; 15]

- 1) tarjimani kim amalga oshirishiga qarab: a) inson tarjimasi; b) kompyuter tarjimasi;
- 2) nutq shakliga ko'ra: a) yozma tarjima; b) matnning og'zaki tarjimasi (on-sight translation); c) og'zaki nutqning og'zaki tarjimasi;
- 3) manbani idrok etish usuliga ko'ra: a) ko'rib tarjima qilish; b) eshitib tarjima qilish;
- 4) manbani idrok etish va tarjima qilish orasidagi vaqtning qiymatiga ko'ra: a) ketma-ket tarjima qilish; b) sinxron tarjima qilish;